

Boymurodova Sadoqat Istam qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
kafedrası o'qituvchisi**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANING
AHAMIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishning ahamiyati yoritilgan. Global ekologik muammolar, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayib borishi yosh avlodga ekologik mas'uliyatni singdirish zarurligini ko'rsatadi. Maqolada ekologik tarbiya jarayonida taniqli pedagoglarning qarashlari keltirib o'tilgan. Ekologik tarbiyani shakllantirishda Sinkveyn va FSMU metodlari asosida tahlili qilingan.

Kalit so'zlar. Ekologik tarbiya, sinkveyn, FSMU, ekologiya, ta'lim, ekologik ong, ekologik madaniyat.

**THE IMPORTANCE OF ECOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL
STUDENTS AND METHODS OF ITS FORMATION**

Annotation. the article highlights the importance of environmental education for Primary School students. Global environmental issues, environmental pollution, and dwindling natural resources indicate the need to instill environmental responsibility in the younger generation. The article cites the views of famous educators in the process of environmental education. In the formation of Environmental Education, an analysis was made on the basis of the methods of Sinkweyn and FSMU.

Keywords. the article highlights the importance of environmental education for Primary School students. Globe.

**ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ У МЛАДШИХ
ШКОЛЬНИКОВ И МЕТОДЫ ЕГО ФОРМИРОВАНИЯ**

Аннотация. В статье освещается значение экологического воспитания младших школьников. Глобальные экологические проблемы, загрязнение окружающей среды и истощение природных ресурсов указывают на необходимость прививать молодому поколению экологическую ответственность. В статье представлены взгляды выдающихся педагогов на процесс экологического воспитания. Проведен анализ экологического воспитания на основе методов синквейна и ФГОУ ВПО.

Ключевые слова. В статье освещается значение экологического воспитания младших школьников. Глобальные экологические про.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarga ekologik tarbiya berish muhim hisoblanadi. Dunyodagi ekologik jarayonlar, iqlim o'zgarishlari, resurslarning rivojlanishi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolar tufayli, yosh avlodni tabiatni asrab-avaylashga chaqirish, ularga ekologik mas'uliyatni singdirish zarur. Shu boisdan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida 2025-yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilgani Yangi O'zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaldagi yana bir ifodasi bo'ldi.

Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni

152 shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi.

"Ekologiya" tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo'llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha "oikos" - turar joy, makon, "logos" -fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan «Avesto»da uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida qimmatli tavsiyalar berilgan. Bolalarga ularning yoshligidanoq ko'chat o'tqazish, daraxtlarni parvarish qilish, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash, yerga ishlov berish hamda chorva mollarini boqish borasidagi bilimlar berilib, amaliy ko'nikmalarning hosil bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mashhur shved pedagogi I.G.Pestalotssi: Bolalarning aqliy kamolotini o'stirishda ta'limning tabiat bilan uy'unligi, bosqichma-bosqich yo'naltirish, bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'zlashtirish darajasi, bolaning aqliy va axloqiy fazilatlarining rivojlanishiga olib keladi.

Atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy "Bolalarga jonim fido" asarida "Men bolalar "Alifbe"ni ochib, birinchi so'zini g'ijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob-tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim" deb ta'kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Komenskiy o'z pedagogik qarashlarida insonni tabiatni bir qismi deb hisobladi va tabiatdagi barcha mavjudotni yagona bir qonunga bo'ysunadi, degan g'oyani olg'a suradi. Uning fikricha, ta'limni, bolalarni narsa va mavjudotlar bilan tanishtirishdan, ularni idrok qildirishdan boshlash, undan keyin ularga xos xususiyatlarni o'rganishga o'tish zarur. Shuningdek, ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili Y.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiati bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Sinkveyn (fr. "besh qator") – ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi. Ekologik tarbiyani shakllantirish mavzusida sinkveyn metodidan quyidagicha foydalanish mumkin.

1-qator: (Bitta so'z, mavzuga oid). Ekologiya

2-qator: (Ikki sifat so'zi). Toza, barqaror

3-qator: (Uch fe'l). O'rgatish, himoya qilish, saqlash

4-qator: (To'rt so'z, mavzu bilan bog'liq fikr). Tabiatni asrab-avaylash — kelajagimiz uchun muhimdir.

5-qator: (Bitta so'z, mavzuga oid). Tinchlik

Yana bir misol sifatida himoya qilish so'zini oladigan bo'lsak, quyidagicha:

1-qator: Himoya

2-qator: Muhim, zarur

3-qator: O'rgatish, saqlash, himoya qilish

4-qator:Tabiatni himoya qilish — bizning mas'uliyatimiz

5-qator: Tinchlik

Sinkveyn qisqa va aniq bo'lgani uchun o'quvchi o'z fikrini tarqatmasdan, faqat asosiy nuqtaga e'tibor qaratishga majbur bo'ladi. Bu metod yordamida ekologik mavzularda qisqacha fikrlar tuzish, o'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatini va ekologik ongini oshiradi. Sinkveyn metodini qo'llash o'quvchiga nafaqat umumiy ijodiy va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda balki ekologik bilimlarni shakllantirishda ham yordam beradi.

FSMU metodi yordamida dars jarayonida ekologik tarbiyani shakllantirish jarayonida unga doir masalalar bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni

ko'rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish va mashq qildirish metodidir.

FSMU metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Bu metod o'quvchilarga ekologik masalalar bo'yicha ongli qarorlar qabul qilishni o'rgatishda samarali bo'lishi mumkin. Endi bu metodni boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berish jarayonida qanday qo'llashni ko'rib chiqamiz.

FSMU metodini boshlang'ich sinfda ekologik tarbiya berishda qo'llash:

1. Fikr: O'quvchilarga ekologik muammolarni tushuntirish va bu masalalar haqida o'z fikrlarini so'rash.

Misol: "Suvni isrof qilishni qanday oldini olish mumkin?"

2. Sabab: Ekologik muammolarning sabablarini tushuntirish.

Misol: "Suvni isrof qilish, resurslarni kamaytirishga olib keladi. Suvni tejash uchun qanday choralar ko'rishimiz mumkin?"

3. Misol: O'quvchilarga real hayotdan misollar keltirish.

Misol: "Shahrimizda chiqindilarni saralash tizimi joriy qilindi, bu orqali chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslarni tejash mumkin."

4. Natija: Ekologik masalalarni hal qilish orqali qanday natijalar bo'lishini tushuntirish.

Misol: "Agar biz chiqindilarni to'g'ri saralasak, tabiiy resurslar tejalanadi va tabiatni ifloslanishdan saqlaymiz."

Bu metod yordamida o'quvchilarga nafaqat ekologik bilimlar beriladi, balki ular tabiatni himoya qilishga bo'lgan mas'uliyatni tushunishadi va amaliy ravishda ekologik xatti-harakatlarni o'zlashtiradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berish nafaqat ularning tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, balki kelajak avlodning atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan mas'uliyatini oshirish uchun ham muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya erta yoshdan berilganda, bolalar tabiatni asrashga oid odatlarni ongli ravishda qabul qiladi. O'quv jarayonida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- O'quv dasturlarida ekologik mavzularga yetarlicha e'tibor berish;
- O'yin, loyihaviy ta'lim, ekskursiyalar kabi innovatsion metodlardan foydalanish;
- O'qituvchi va ota-onalar hamkorligida ekologik tarbiyani mustahkamlash.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, agar bolalarga ekologik muammolar faqat nazariy tushuntirilsa, ular bu mavzuga qiziqmaydi. Shu sababli, interaktiv usullar, tajribalar va real hayotiy misollar orqali ularga tabiatning ahamiyati tushuntirilganda, natijalar ancha samarali bo'ladi. Masalan, chiqindilarni saralashni o'rgatish yoki maktab hovlisida ko'chat ekish kabi amaliy mashg'ulotlar bolalarda ekologik ongni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar ekologik masalalarni o'z ko'zi bilan ko'rsa va ularni hal qilishda ishtirok etsa, ularning ekologik ong darajasi ancha yuqori bo'ladi. Ota-onalar va o'qituvchilarning ekologik mas'uliyati muhim. Agar bolalar o'z atroflaridagi kattalar ekologik muammolarni jiddiy qabul qilayotganini ko'rsa, ular ham tabiiy ravishda bu qadriyatlarni o'zlashtiradi. Ekologik tarbiya davomiy jarayondir. U faqat bir martalik tadbirlar yoki darslar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Balki, u o'quvchilarning kundalik hayotiga singdirilishi lozim. Maktab va oilaviy muhit ekologik tarbiyani qo'llab-quvvatlasa, uning natijalari uzoq muddatli bo'ladi. Texnologiyalar ekologik ta'limga yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli resurslardan foydalanish orqali bolalarga ekologik bilimlarni yanada qiziqarli tarzda yetkazish mumkin.

Ekologik tarbiya boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu yoshda bolalar atrof-muhitni anglash va ekologik muammolarni tushunish jarayoniga kirishadi. Shuning uchun ularga ekologik madaniyatni

- 154 singdirish kelajakda yanada ongli va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan odatlarni shakllantirish ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova, N. B., Boymurodova, S. I., & To'rayev, S. D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING O 'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 548-548.
2. BI, B. S. O. (2023). Methods of effectively organizing reading literacy lessons for primary school students. *Confrencea*, 12(12), 185-188.
3. MX, B. S. S. (2023). The role of interactive methods in improving the effectiveness of primary education. *Confrencea*, 12(12), 189-192.
4. Boymurodova, S. I. (2023). Methodology of an innovative approach to effective organization of mother tongue lessons in primary grades. *Confrencea*, 12(12), 180-184.
5. SI, S. B., & Jumabayeva, M. R. Theoretical foundations of the formation of creative abilities of primary school students.